

6-AMALIYOT ISHI. SO'LAK TARKIBIDAGI MUTSINNI ANIQLASH.

Tekshiriluvchi material: so'lak, aorta to'qimasi

Reaktivlar: kontsentrlangan sirka kislota, kontsentrlangan sulfat kislota, (-naftolning spirtidagi 1% li eritmasi, timolning 1% li eritmasi.

Kerakli anjomlar: shtativ, probirkalar, pipetkalar, shisha tayoqcha, chinni xovoncha, kvarts qumi, voronka, filtr qog'ozi

Ishning bajarilishi:

1. 1-2 ml so'lak probirkaga yig'iladi va unga 10-20 tomchi kontsentrlangan sirka kislota tomchilab solinadi. Mutsin cho'kmaga tushgach, cho'kma ustidagi suyuqlik asta-sekinlik bilan to'kib tashlanadi, quyqa esa filtr qog'ozda quritiladi. Mutsin quyqasi bilan Molish reaksiyasi o'tkaziladi.

Molish reaksiyasi:

Mutsin cho'kmasiga 1-2 tomchi (-naftolning 1% li spirtli eritmasi solinadi. So'ngra probirka devori bo'ylab extiyotkorlik bilan 20-30 tomchi sulfat kislotaning kontsentrlangan eritmasi quyiladi. 2 qavat suyuqlik chegarasida qizg'ish-binafsha xalqa hosil bo'ladi. Agar (-naftol o'rniga 1% li timol eritmasi solinsa, unda qizil xalqa hosil bo'ladi.

2. Aorta to'qimasidan 0,5-1 g olib, ustiga 5 ml 5% li sirka kislota qo'shiladi va 15 daqiqa davomida chinni havonchada toza qum yordamida maydalanadi. Olingan ekstrakt filtrlanadi va tarkibida glikoproteid bo'lgan filtrat bilan uglevod komponentiga Molish reaksiyasi o'tkaziladi.

Biuret reaksiyasi

Ishqoriy muhitda oqsillar va ularning gidroliz mahsulotlari bo'lgan polipeptidlar binafsh yoki qizil-binafsha rang hosil qiladi.

Tekshiriluvchi material: 1% li oqsil eritmasi, 1% li jelatina eritmasi, 1% li bug'doy eritmasi

Reaktivlar: natriy gidroksidning 10% li eritmasi, mis sulfatning 1% li eritmasi

Kerakli anjomlar: probirkalar, pipetkalar, shtativlar

Ishning bajarilishi:

3 ta probirka olib, birinchisiga 5-10 tomchi tuxum oqsilining 1% li eritmasi, ikkinchisiga 5-10 tomchi bug'doy oqsilining 1% li eritmasi, uchinchisiga 5-10 tomchi jelatinaning 1% li eritmasi solinib, hamma probirkaga 10 tomchidan natriy gidroksidning 10% li eritmasi va mis sulfatning 1% li eritmasidan 1 tomchi solib, aralastiriladi. Uchala probirkada ham qizil-binafsha yoki ko'kish-binafsha rang hosil bo'ladi.

Polipeptidlarning misli kompleksini sxematik ravishda quyidagicha tasvirlash mumkin:

Ningidrin reaksiyasi

Ningidrin reaksiya aminokislotalarining α -holatida turgan aminoguruhlariga xosdir.

Ningidrin ta'sirida oksidlangan α -aminokislogta dezaminlanadi, dekarboksillanadi. Natijada SO_2 , ammiak, aldegid hosil bo'ladi. Oksidlangan

ningidrin qaytarilgan ningidrinning ikkinchi molekulasini bilan ammiak ishtirokida birikib binafsha-ko'k rangli kondensatsiyalangan mahsulotni hosil qiladi.

Tekshiriluvchi material: bug'doy oqsili eritmasi

Reaktivlar: 0,1% li ningidrinning spirtli eritmasi, 1% li alanin eritmasi

Kerakli anjomlar: probirka va shtativlar, pipetkalar

Ishning bajarilishi

3 ta probirka olib, birinchisiga 5 tomchi tuxum oqsili, ikkinchisiga 5 tomchi bug'doy oqsili, uchinchisiga 5 tomchi alanin eritmasidan tomizib, ustiga 5 tomchidan 0,1% li ningidrin eritmasidan quyib, 1-2 daqiqa qizdiriladi. Probirkalaradagi aralashmalar avval pushti-binafsha yoki ko'kish-binafsha rangga bo'yaladi. Vaqt o'tishi bilan eritma ko'karadi. Bu usul yordamida aminokislotalarni miqdor jihatdan ham aniqlash mumkin.